

## YAQIN SHARQDAGI VAZIYAT VA UNING MOHIYATI

*Adashmurodova Shahina Dilshodovna*  
*SamDU Tarix fakulteti II bosqich talabasi*  
*Ilmiy rahbar: SH.SH. Xamraqulova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yaqin Sharqdagi murakkab vaziyatning kelib chiqish sabablari, arab – Isroil urushlarining boshlanib, borishi va bugungi kundagi holatiga to’xtalib o’tilgan. Shu bilan birga, “Sionizm” harakati va uning maqsadi to’g’risida ham ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Yaqin Sharq, Isroil, Falastin, Sionizm, MMD, Britaniya mandati, Bilderberg tashkiloti.

**Abstract:** This article discusses the complex situation in the middle east examining the causes of the Arab-Israeli conflicts, the initiation and development of these wars, and their current state. Additionally, it provides information about the Zionist movement and its objectives.

**Keywords:** Middle East, Israel, Palestine, Zionism, UN, British Mandate, Bilderberg Group

**Аннотация:** В статье рассматривается сложная ситуация на Ближнем Востоке, рассматриваются причины арабо-израильских конфликтов, начало и развитие этих войн, а также их нынешнее состояние. Кроме того, в статье приводится информация о сионистском движении и его целях.

**Ключевые слова:** Ближний Восток, Израиль, Палестина, сионизм, ООН, Британский мандат, Бильдербергская группа

Bugungi dunyoda turli sabablar oqibatida urushlarga ko'payib ketdi. Shunday urush o'chog'laridan biri bugungi kunda Yaqin Sharq hududidir. Bu hudud Osiyoning g'arbiy va janubi-g'arbiy hamda Afrikaning shimoli-sharqiy qismidagi hududlarning nomi. Bu hududdagi eng ommalashib ketgan urushlardan biri Isroil va Falastin mojarosidir. Bu urush XX asrning o'rtalarida boshlanib to bugungi kungacha davom etib kelayotgan uzoq mojaroli urushlardan biridir. Bu mojoroning kelib chiqishi XIX asr oxiri va XX asr boshida yahudiy muhojirlarining Falastinga kelishi va sionistik harakatning paydo bo'lishidan kelib chiqqan.

Sionizm timsonga o'xshaydi. Ustgi jag'i Amerika, ostgi jag'i Yevropa ittifoqi; miyasi sionizm, gavdasi uning hamkorlaridir. Sionizm yahudiylarning Falastinga kelishini rag'batlantirish va u yerda yahudiy davlatini tuzish orqali o'z-o'zini anglatuvchi mafkura. Sionizmi nazariyasining asoschilaridan bo'lgan Teodor Gertsil deganki “Shimoliy chegaralarimiz Kapokodiya ( o'rta Onaduli)gacha boradi, janub esa Suvaysh kanaligacha.” Aynan bu gaplardan bilishimiz mumkinki, bugungi

Falastindagi vaziyat, G'arbiy Sohil va G'azo sektorining Isroil tomonidan bosib olinishi maqsadining amalga oshirayotganliklarining isbotidir. Sionizm G'oyalari yo'lida yashil qog'oz parchasi bo'lgan dollarni butun dunyo amal qiladigan pul birligiga aylantirdi. Dollarni bezab turgan belgilar o'z xususiyatiga va ma'nosiga egadir. Bu belgilarning ma'nosini faqatgina darajama-daraja ko'tarilib, eng yuqori cho'qqiga chiqqan kimsalar to'liq bilishi mumkin. Sionizm e'tiqodiga ko'ra, shayton jannatdan quvilganidan so'ng yer yuzidagilardan Bani Isroilga mansub kishilar yordamida qasos olar ekan. Eng katta maqsadi – sionizmning dunyo hokimiyatini qurishi. Bu maqsadga ilk qadam quvg'in qilingan jamiki, yahudiylarning Falastinga ko'chirib keltrilishi bo'ldi. Ikkinchi bosqichda esa Furot va Nil daryolari orasidagi ulkan hududlarni o'z ichiga olgan buyuk Isroil davlati tashkil topadi. Bu davlatlarning xavfsizligini ta'minlash uchun Marokashdan Indoneziyagacha bo'lgan 28 ta davlatning boshqaruvi qo'lga olinadi. Masjidul Aqso o'rniga Sulaymon ibodatxonasi qaytadan bunyod etiladi. Bu maqsadlarinig hammasi amalga oshirilgandan so'ng Iso masih yer yuziga tushadi va Dovud (alayhissalom)ning taxtiga yahudiy hukmdori sifatida o'tradi. Ushbu qirol butun dunyo davalati tuzulishini oxiriga yetkazadi va Isroil o'g'illarining hokimiyatini mustahkamlaydi. Sionizmning e'tiqodi manashu. Shu maqsadlarni amalga oshirish uchun XX asr boshlarida Teador Gretsil vositasida Isroilga asos solish maqsadida sulton Abdulhamiddan Falastinning ma'lum bir hududini sotib olishni bildiradi. Ammo sulton bu taklifni rad qildi. Shundan so'ng 1897-yil Shveytsaryaning Bazel shahrida birinchi sionistik kongress o'tkazildi. Bu kongressda uchta nasraga kelishib olishdi:

Sulton Abdulhamidni taxtdan ag'darish; Usmoniylar imperiyasini tugatish; 100 yil ichida islom dinini reformatsiya yo'li bilan bo'lsada, buzish va oxir-oqibat ta'sirini yo'qqa chiqarish.

Aynan bu maqsadlarni amalga oshirish Italyan hahamboshisi Emmanuil Karassoga topshirildi. Aynan Emmanuil Karassoning harakati bilan bu maqsadlarning ba'zilar amalga oshdi. Bu maqsadlardan biri sulton Abdulhamid taxtdan tushirilib partiya faoliyati o'zgartirildi. Ikkinchi bosqich davomida ko'plab ishlar amalga oshirildi, xususan Bolqon urushi keltrib chiqarildi, Usmonli davlati birinchi jahon urushiga kiritildi. Keyinchalik bu o'zgarishlar ortidan Savr, Lozzana kabi shartnomalar tuziladi va buni imzolashga majbur b'ladi. Aynan mana shunday jarayonlar natijasida katta – katta tashkilotlar sionistik kuchlar tomonida boshqariladi.

Bizga ma'lumki, 1948-yilda Isroil davlati tuzilganligi haqida rasmiy qaror qabul qilindi. Aynan diniy mojarolarning oldini olish maqsadida Quddus xalqaro shahar deb e'lon qilindi. Shundan keyin Falastin diyorida Isroil davlatining tashkil etilishiga qarshi chiqqan Misr, Suriya, Livan, Iroq kabi arab davlatlari o'rtasida birinchi Arab – Isroil urushi boshlandi va unda arab davlatlari mag'lubiyatga uchrab, !81-rezolyutsiyaga ko'ra Falastin davlati tuzilmay qoldi.

1956-yilda ikkinchi arab -Isroil urushi bo'lib o'tdi. Buning asosiy sababi Misr rahbari Jamal Abdul Nosirning Suvaysh kanali ustidan nazoratni qo'lga olishi hamda uni milliy lashtrishga bo'lgan qarori edi. 1956-yilga kelib bu kanalni Misr rahbari tomonidan nazoratga olinganining e'lon qilinishi G'arb va Isroil davlatning noroziligiga sabab bo'ldi. Isroil uchun Misrning qo'shni davlatlariga tahdid qilishi xavotir tug'dirgan, shundan so'ng hujum qilishga qaror qildi. Isroilning bu qarorini Buyuk Biritaniya hamda Fransiya qo'llab-quvvatladi. 1956-yil Isroil Sinay yarim oroliga hujum uyushtiradi. Buyuk Biritaniya hamda Fransiya ham havo hujumlarini tashkillashtiradi. AQSH va SSSRning bosim ostida BMT tomonida urush to'xtatildi. Suvaysh kanali Misr nazorati ostida qoladi hamda Fransiya va Buyuk Biritaniya Misr hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Shundan so'ng, 1967-yildagi uchinchi arab – Isroil urushida olti kunlik janglar paytida Isroil tomonida yangi hududlar nazorat ostiga olindi bular: Sharqiy Quddus, Golan tepaliklari, Iordaniya daryosining G'arbiy sohili, G'azo sektori ( 2005-yildan Falastin nazoratiga o'tgan), Sinay yarimoroli (1978-yildan Isroilning Misr tomonidan tan olinishi va sulh natijasida Misrga qaytarib berilgan).

1973-yilda bo'lib o'tgan to'rtinchi Arab-Isroil urushi yoki Yom Kippur (Qiyomat urushi) urushi nomi bilan tarixda qoladi. Bu urush asosan Misr, Suriya hamda Isroil o'rtasida bo'lib o'tadi. Urush 1973-yil 6-oktabr kuni, Isroildagi Yom - Kippur bayrami kunida boshlangani uchun urush shunday nom bilan ham ataladi. Bu urushda arab davlatlari bo'lgan Misr va Suriyaning maqsadlari nima edi?

Misr uchun -Suvaysh kanalidagi Sinay yarim oroliga bo'lgan nazoratni qaytarish. Suriya uchun - 1967-yildagi olti kunlik urushda Isroil tomonidan egallangan Golan tepaliklarini qaytarish edi. Shu sababli Misr va Suriya belgilangan maqsadlar uchun urush harakatlarini boshlagan. Kutulmagan urushdan keyin Isroil jiddiy zarar ko'rgan. Urush davomida AQSH tomonida Isroil qo'llab-quvvatlangan, arab davlatlari esa SSSR tomonida qo'llab-quvvatlangan. Urush 24-oktabrda BMTning aralashuvidan keyin yakunlangan. Urush natijasiga ko'ra, Misr va Isroil o'rtasida 1978-yilda Kemp-Devid shartnomasi imzolani Sinay yarimoroli Misrga qaytarilgan.

Aynan mana shunday tez-tez to'qnashuvlarning sodir bo'lishi natijasida 90-yillarda “Oslo-1” va “ Oslo-2” shartnomalari imzolandi. Bunday shartnoma va kelishuvlarning tuzilishiga qaramay ikki davlat o'rtasida bugungi kungacha ham to'qnashuvlar bo'lib o'tmoqda. 76 yillik mojarolar haligacha dunyo tashkilotlari tomonidan hal qilingan emas. Bugungi kunda G'azo sektorida Isroil va HAMAS o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tez-tez sodir bo'lmoqda. G'arbiy sohilda Isroil va Falastin muxtoriyati o'rtasida siyosiy va iqtisodiy nizolar saqlanib turibdi. Falastinliklar mustaqil davlat tuzish tarafdori bo'lib qolmoqda.

Shuncha kelishuvlarga qaramay Isroil va Falastin o'rtasida yana qaytadan 2023-yil 7-oktabrda HAMAS tomonidan Isroilga hujum uyushtirildi. Hujum 7-oktabr ertalab

HAMAS boshqaruvidagi G'azo sektoridan Isroilga kamida 5000 ta raketa otilishi bilan bilan boshlandi. Falastin tomonidan qo'shni Isroil hududidan tinch aholi vakillari garovga olingan hamda 1400 dan ortiq Isroillik nobud bo'ldi. Shundan so'ng Isroil 8-oktabr kuni HAMASga qarshi urush e'lon qildi. Bu urush 1973-yilda bo'lib o'tgan Yom Kippur urushiga 50 yil to'lgan kunda boshlandi.

Bu hujumlar boshlanganiga bir yildan ortiq vaqt bo'ldi bu vaqt davomida Falastin hududida 50 mingdan ziyod tinch aholi vakillari halok bo'ldi. Bugungi kungacha G'azo sektoriga yuborilayotgan 250 mingdan ziyod gumanitar yordamlarni to'sib qo'ydi. Bu ikki davlat o'rtasidagi ro'y berayotgan urushlarda Isroil bosh vaziri Benyamin Netanyahu tarixga " G'azo qassobi" nomi bilan qoldi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, birgina Falastin va Isroil o'rtasidagi vaziyat emas, balki butun dunyoda bo'layotgan siyosiy jarayonlarda zarar ko'rayotganlar faqat insonlar bo'lib qolmoqda. Biz faqatgina e'tiborimizni raqamlarga qaratmoqdamiz, ammo bu raqamlar ortida jabrlanayotganlar insonlar bo'lib qolmoqda. XX asr davomida Afg'onistonda 15 mingdan ortiq aholi vafot etdi. Tinch aholi ustiga 50 ming tonnalik bombalar tashlandi, Iroqda birgina AQSH va Angilya tomonidan yadro bombasining qidirish bahonasida 50 mingandan ziyod odam vafot etdi. Topa olishmaganidan keyin ular shunchaki uzr so'rashdi. Men bu bilan nima demoqchiman geosiyosiy jarayonlarni tinchlik yo'li bilan halqila olishmaganida jabrlanadiganlar faqat tinch aholi vakillari bo'lib qolmasin.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Najmiddin Erbaqon “G'oyam” 2023. 312 b
2. Hantington S.F. “ Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi” 2023 560 b
3. Morris Benny. 1948: a history of the first Arab-Israeli war. Yale University Press, 2008.